



**BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDAGI MATNLAR
TAHLILIDA LINGVISTIK TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH**

Shodiyeva Mehribon Amin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga lingvistik tushunchalarni o'rgatishning ahamiyatli jihatlari va darslar jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan lingvistik topshiriqlardan namunalar berilgan. Darslikda berilgan matnlar mazmuni, tahlil qilish jarayoni hamda qo'llash mumkin bo'lgan metodlar bayon qilingan. Keltirilgan fikrlar 2-sinf(II qism)ona tili darsligi asosida izohlangan.

Kalit so'zlar: lingvistik tushuncha, lingvistik topshiriq, til birliklari, kreativ yondashuv, ijodiy tafakkur, krossvord, chaynvord, mantiqiy fikrlash.

Аннотация: В статье представлены важные аспекты обучения лингвистическим понятиям учащихся начальной школы и примеры лингвистических задач, которые можно использовать на уроках. Описано содержание текстов, приведенных в учебнике, процесс анализа и методы, которые можно использовать. Представленные идеи объясняются на основе учебника родного языка для 2-го класса (часть II). Ключевые слова: лингвистическое понятие, лингвистическая задача, языковые единицы, творческий подход, творческое мышление, кроссворд, цепочка слов, логическое мышление.

Abstract: This article presents important aspects of teaching linguistic concepts to primary school students and examples of linguistic tasks that can be used in the lessons. The content of the texts given in the textbook, the process of analysis, and the methods that can be used are described. The ideas presented are explained based on the 2nd grade (Part II) native language textbook.

Keywords: linguistic concept, linguistic task, language units, creative approach, creative thinking, crossword, chainword, logical thinking.

Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va yosh avlodni har jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdir. Buning uchun yoshlarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tafakkur va nutq madaniyati to'g'ri shakllangan bo'lishi lozim. Ona tili darslaridan ko'zlangan maqsad ham aynan shunday. boshlang'ich sinf darsliklaridagi mavzular nazariyadan ko'ra ko'proq amaliy tarzda ishlashga qaratilgan bo'lib, berilgan matnlar ham hayot bilan bog'liq bo'lgan mavzular asosida tuzilgan. O'quvchilar mavzuni tushunish bilan birga yangi ma'lumotlarga ega bo'lib boradilar. Jumladan, 2-sinf(II qism) ona tili darsligida berilgan matnlarni tahlil qiladigan bo'lsak, unda "Mening oilam", "Bolalarning jajji huquqlari", "O'zbekistonning noyob tabiati", "Jonli burchak", "Ona tabiatni asraylik" va "Tabiiy boyliklarni tejaylik" kabi mavzularga oid matnlar berilgan. Ushbu mavzular orqali bir qancha tarbiyaviy ahamiyatga ega





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bo'lgan tushunchalar yoritilgan. Oilaning naqadar muqaddas dargoh ekanligi, qonunlarni bilishning ahamiyati, tabiatni asrab-avaylash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish kerakligini bilib oladilar va hayot bilan bog'liq ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Ushbu darslikda tutuq belgisi, bo'g'in, yonma-yon kelgan bir xil undoshlar, so'z va uning ma'nolari kabi grammatik mavzular berilgan. Mavzular kesimida 27 ta matn berilgan bo'lib, dialog yoki ma'lumotlar shaklida bayon qilingan. Bundan tashqari, rasm asosida gaplar tuzish, matn hosil qilish kabi topshiriqlar, imloviy xarakterdagi mashqlarni ko'rishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga lingvistik tushunchalarni o'rgatishning bir qator ahamiyatli jihatlari mavjud. Jumladan, savodxonlik va yozuv madaniyatini shakllantirish, til tuzilishini chuqur tushunish, mantiqiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish, tilga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishda ushbu ma'lumotlarning o'rni beqiyosdir. Shu bilan birgalikda, bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo'lgan chet tillarini o'rganishda ham asos bo'lib xizmat qiladi. Ona tili darslarida lingvistik topshiriqlarning alohida o'rni bor, chunki bunday turdagi mashqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar til birliklarining o'zaro aloqadorligini yaxshiroq tushunadilar. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutq elementlarini shakllantirish, ularning ijodiy tafakkurini o'stirishda lingvistik topshiriqlarni kreativ yondashuv asosida taqdim qilish maqsadga muvofiq. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda turli o'yin, ko'rgazmali vositalar, muammoli vaziyatlar yaratish kabi usullardan foydalanish mumkin. So'z o'yinlari, rebuslar, chaynvord, krossvordlardan foydalanish ham o'quvchilarning ijodiy qobiliyati, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Aralash harflar orasidan so'zlarni izlab topish usuli ham juda yaxshi usul bo'lib, bunda ko'z xotirasi va mantiqiy tafakkurni ishga solgan holda so'zlarni hosil qiladilar.

"Muvozanatni tiklash" topshirig'ini berish mumkin. Bunda o'quvchilarga birorta surat va yonida matn berilgan qog'ozlar tarqatiladi. O'quvchilar berilgan surat asosida matndagi uslubiy va imloviy xatolarni tuzatishlari lozim. Bu jarayonda o'quvchilardan sinchkovlik, mantiqiy fikrlash, tezkorlik hamda lingvistik bilimlar talab qilinadi.

Lingvistik tushunchalarni o'rgatishda integratsion darslar ham yaxshi samara beradi. Ayniqsa, o'quvchilar yangi so'zlarni chet tillaridagi muqobili bilan birgalikda o'rganishsa maqsadga muvofiqdir. Dars davomida o'rganilgan so'z, so'z birikmasi yoki gapni boshqa fanlar bilan bog'liqlikda tushunish o'quvchilarda tafakkur qilish imkoniyatlarini yana-da kengaytiradi. Bunday bilimlarni o'rgatishda savodxonlik davri muhim poydevor vazifasini bajaradi. Chunki, aynan shu davrdan o'quvchilarga harf, tovush, bo'g'in, so'z, gap tushunchalari amaliy tarzda o'rgatib boriladi. So'z tuzilishi va so'z yasashga oid dastlabki lingvistik bilimlar hosil qilingach, to'g'ri talaffuz va imlo me'yorlari ham asta-sekin o'rgatib boriladi. Lingvistik bilimlar o'quvchilarda so'z boyligining ortishiga, tahliliy va mantiqiy fikrlash jarayonining rivojlanishiga yordam





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

beradi. Ma'lumki, suhbatning qiziqarli bo'lishi so'zlovchiga bog'liq. Shunday ekan, to'g'ri nutq madaniyatini shakllantirish uchun ham bevosita lingvistik bilimlar muhim ahamiyatga ega. O'z ona tiliga oid qoidalarni mukammal o'rgangan o'quvchi boshqa tillar grammatikasini ham bimalol o'zlashtira oladi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda ona tili fanining maqsadi ham bevosita mustaqil fikrlay oladigan va o'z fikrini erkin bayon qila oladigan yosh avlodni tarbiyalashdan iborat. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish keyingi sinflarda o'rganiladigan bilimlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rasulov T., Jo'rayev M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2020
2. Quronboyeva G.A. Boshlang'ich sinflarda til o'rgatish metodikasi. – Toshkent, 2019
3. Vohidova M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2022
4. Abdullayeva F.N., Shodiyeva M.A. Ona tili darslarida lingvistik tushunchalarni o'rgatishning ahamiyati. Pedagogik tadqiqotlar jurnali.- 2024, noyabr
5. Shodiyeva M.A. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida lingvistik tushunchalarni o'rgatishning nazariy asoslari "Globallashuv sharoitida ilm-fan muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya. – 2024
6. Shodiyeva M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini lingvistik tushunchalar bilan tanishtirish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Iqro– volume 14, issue 02, 2025, 225-227.

